



LEGAL PROCEDURE FOR REGISTRATION OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATION: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Bekzod Abduvalievich Narimanov

Doctor of Law, Associate Professor

Deputy Commissioner of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan for Human Rights

e-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: non-governmental non-profit organization, registration, legal regulation, organizational and legal form.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article analyzes the legal regulation of the process of registering non-governmental non-profit organizations (NGOs) from a theoretical and practical perspective. In particular, it covers the constitutional and legal framework of NGOs, their organizational and legal forms, stages of registration, and relations with state bodies. Based on practical experience, problems encountered in the registration of NGOs and ways to overcome them are considered. Also, the advantages and disadvantages of the current procedure in Uzbekistan are analyzed in comparison with the experience of foreign countries, and proposals and recommendations are developed to improve legal mechanisms.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTINI RO'YXATDAN O'TKAZISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Bekzod Abduvaliyevich Narimanov

Yuridik fanlar doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari

bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari

e-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkiloti, ro'yxatdan o'tkazish, huquqiy tartibga solish, tashkiliy-huquqiy shakl.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT) ro'yxatdan o'tkazish jarayonining huquqiy tartibga solinishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, NNTlarning

konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari hamda davlat organlari bilan munosabatlari yoritiladi. Amaliy tajriba asosida NNTlarni ro'yxatga olishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirgan holda O'zbekistonda mavjud tartibotning afzalliklari va kamchiliklari tahlil etilib, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГИСТРАЦИИ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННОЙ НЕКОММЕРЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Бекзод Абдувалиевич Нариманов

Доктор юридических наук, доцент

Заместитель Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека

e-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

Ташкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: негосударственная некоммерческая организация, регистрация, правовое регулирование, организационно-правовая форма.

Аннотация: В статье анализируется правовое регулирование процесса регистрации негосударственных некоммерческих организаций (ННО) с теоретической и практической точки зрения. В частности, рассматриваются конституционно-правовые основы деятельности ННО, их организационно-правовые формы, этапы регистрации и взаимоотношения с государственными органами. На основе практического опыта рассматриваются проблемы, возникающие при регистрации ННО, и пути их преодоления. Также анализируются преимущества и недостатки действующей в Узбекистане процедуры в сравнении с опытом зарубежных стран, разрабатываются предложения и рекомендации по совершенствованию правовых механизмов.

So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarini faoliyatini tashkil qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlarni ruxsat beruvchi tartiblarni soddalashtirish, NNTlar faoliyatini yanada kafolatlash, umuman NNTlar bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish orqali takomillashtirishga alohida urg'u berilmoqda.

Mustaqillikka erishgan dastlabki davrda Respublikamizda 100 taga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatib kelgan bo'lsa, bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan qariyb 9 ming nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda.

2020-yilda – 383 ta, 2021-yilda – 403 ta, 2022-yilda – 357 ta NNT davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning asosiy tendensiyalarini aniqlash maqsadida so'nggi uch yil davomida davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha umumiy holat tahlili amalga oshirildi.

2020-yil ko'rsatkichlari:

Respublikada jami 9 160 ta NNT mavjud, ulardan 600 tasi vazirlik tomonidan ro'yxatga olingan, 8560 tasi Hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

2021-yil ko'rsatkichlari:

Respublikada jami 9 039 ta NNT mavjud, ulardan 648 tasi vazirlik tomonidan ro'yxatga olingan, 8391 tasi Hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

2022-yil ko'rsatkichlari:

Respublikada jami 8 933 ta NNT mavjud, ulardan 683 tasi vazirlik tomonidan ro'yxatga olingan, 8250 tasi Hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tishi rad etilgan NNT larga oid statistik ma'lumotlar ham juda muhim. So'nggi uch yil kesimida davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilgan NNTlar holati quyidagicha:

2020-yilda – 352 NNT;

2021-yilda – 573 NNT;

2022-yilda – 613 NNT [1].

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish davlat xizmatining muhim belgisi sifatida fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 39-moddasi bilan belgilab berilgan birlashmalarga uyushish huquqini amaliy ko'rinishlaridan biri sifatida qayd etish mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonun, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 13-

bandida NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilgan.

Jumladan, unga ko'ra NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga NNTni tuzish tashabbuskorlari yoxud ta'sischi'lari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda jismoniy shaxslar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash joyi hamda yuridik shaxslar uchun — nomi, pochta manzili, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi ko'rsatiladi; tashabbuskor fuqarolar ro'yxati:

kamida uch ming kishining ro'yxati — kasaba uyushmalari uchun;

kamida o'n kishining ro'yxati — boshqa jamoat birlashmalari uchun, siyosiy partiyalardan tashqari ilova qilinishi hamda ro'yxatlarda, imzolardan tashqari, imzolagan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash joyi ko'rsatiladi. Imzolar va ma'lumotlar imzolagan shaxsning yashash, ish, o'qish yoki harbiy xizmat joyida tasdiqlanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi PF-6191-son Farmonining 4-bandiga ko'ra, 2021-yil 1-iyundan boshlab davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan aholidan, shu jumladan tadbirkorlik subyektlaridan:

manzil-ma'lumot axboroti;

soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilganligi;

shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi;

shaxsning belgilangan shakldagi fotosurati;

mehnat daftarchalari va ularning nusxalari;

kadastr hujjatlari va ularning nusxalarini talab qilish bekor qilingan.

Bunda, davlat organlari va tashkilotlari jismoniy shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda, ishga qabul qilish jarayonida va boshqa ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirishda mazkur bandda nazarda tutilgan hujjat va ma'lumotlarni ushbu Farmonga 1-ilovada belgilangan mas'ul davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab oladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-oktyabrdagi 789-son qarorining 1-bandiga ko'ra, 2018-yil 15-oktyabrdan davlat xizmatlari ko'rsatilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining shaxsning yashash joyi bo'yicha (doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi) yashayotganligi hamda shaxsning ishsizligini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim qilish bo'yicha tartib bekor qilingan.

Shu o'rinda qayd qilish kerakki, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 23-moddasiga ko'ra, fuqarolarning birlashish huquqlari davlat va jamoat xavfsizligi nuqtayi nazaridan cheklanishi mumkin. Mazkur qoidalar milliy qonun hujjatlarimizda ham o'z aksini topgan.

Xususan, mazkur xalqaro huquqiy hujjat qoidasiga asoslangan holda qabul qilingan milliy tartibga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ta'sis hujjatlari o'rganiladi. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan nizomning 19-bandida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ, zarurat bo'lganda, tegishli tashkilotlarga NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish uchun yuborishga haqli ekanligi belgilangan. Shu sababli, qonun hujjatlar normalarini ta'sischi bilan bog'liq qo'shimcha shartlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Amalda, nodavlat notijorat tashkilotlar bir necha marotaba murojaat qilgandan so'ng adliya organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Goho, ijtimoiy tarmoqlarda bir necha yillardan beri ko'plab murojaatlarga qaramay, texnik xarakterdagi kamchiliklar bilan nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etib kelinayotganligi bilan bog'liq axborotlarni tarqatish yoki ijtimoiy tarmoqlarda bu haqida ayrim mutaxassislar tomonidan haqli e'tirozlar bildirish holatlari kuzatilmoqda.

Fikrimizcha, nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslarini liberallashtirish hamda bir necha yillardan beri ko'plab marotaba texnik sabablarni ko'rsatgan holda rad etish holatlariga chek qo'yish maqsadga muvofiq.

Sohaga oid muammolarni tizimli tahlil qilish maqsadida ma'muriy sudlar tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad qilish bo'yicha adliya organlari mansabdor shaxslari xatti-harakati ustidan bergan shikoyati bo'yicha yuritilgan ma'muriy ishlar amaliyoti ko'rib chiqildi. Xususan, 2021-yil dekabr oyida tashabbuskor fuqarolar "A" jamoat birlashmasini tashkil etish to'g'risida qaror qilib, ushbu tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazishni so'rab Toshkent shahar adliya boshqarmasiga murojaat qilgan. 2022-2023-yillarda tashabbuskor fuqarolarning Federatsiyani davlat ro'yxatidan o'tkazish haqida uch marta murojaatiga NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan uch marta, ya'ni 2021-yil 24-sentyabr, 2021-yil 30-dekabr va 2022-yil 7-fevraldagi javob xatlari bilan arizachi tomonidan taqdim etilgan ta'sis hujjatlari amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda rasmiylashtirilmaganligi sababli rad qilingan.

Yuqorida keltirilgan ma'muriy sud tomonidan ko'rilgan ishdan ma'lum bo'ldiki, NNTni tuzish bo'yicha tashabbuskor fuqarolar tomonidan uch marta taqdim qilingan murojaatini ro'yxatdan o'tkazuvchi organ har xil asoslarga ko'ra rad qilgan.

Demak, nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning amaldagi tartibi shuningdek, shu soha bo'yicha ma'muriy sud ishlarini yuritish amaliyotini o'rganish asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ro'yxatga oluvchi organning harakatlari O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining bir qator normalari, xususan byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi prinsipiga muvofiqligi emas, degan xulosaga kelindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarda ma'muriy organlar sifatida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ – adliya organlarini olishimiz mumkin. Manfaatdor shaxs esa nodavlat notijorat tashkilotini ta'sischi nazarida tutiladi.

Quyida NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazishning ma'muriy tartib taomillarini tahlil qilamiz.

J.Ne'matovning fikriga ko'ra, "Ma'muriy tartib-taomillarning xususiyati shundaki, ular ma'muriy organlarning ma'muriy hujjatni qabul qilish bilan bog'liq bir xil protsessual qoida va standartlarini belgilaydi" [2].

Fikrimizcha, nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishni huquqiy tartibga soluvchi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun prinsiplariga mos bo'lishi shart.

L.Xvan fikricha, ma'muriy organing nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha qarori bevosita ma'muriy tartib-taomillarga oid munosabat hisoblanadi [3].

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, adliya organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga vaj sifatida texnik rasmiylashtirishga oid talablarga rioya qilinmaganlik asos sifatida keltirilmoqda.

L.Xvan ma'muriy organ tomonidan nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori bo'yicha qonunning 18-moddasidagi "tekshirish prinsipi" asosida "ma'muriy organ ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirishi shart, deya fikr bildiradi [3].

Fikrimizcha, ma'muriy organ manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar bilan cheklanmasdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z tashabbusi bilan qo'shimcha dalillar yig'ishga haqli ekanligi belgilangan. Nodavlat notijorat tashkilotiga oid ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi prinsipi ham juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 44-moddasiga asosan Ma'muriy organ arizachiga qonun hujjatlariga muvofiq zarur yordam ko'rsatishi shartligi belgilangan. Bizga ma'lumki, aksariyat nodavlat notijorat tashkilotlari ma'muriy organ bilan ma'muriy-huquqiy munosabatlarda huquqiy bilimlarning talab darajasida emas.

Fikrimizcha, ma'muriy organing zaruriy yordam berish majburiyatini ma'muriy organing nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini liberallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 45-moddasida "agar arizada to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ularni to'g'rilash uchun arizachiga imkoniyat va muddat beradi" deb belgilangan.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni asosida kamchiliklar va xatolarni to'g'rilash uchun 5 kundan kam bo'lmagan muddat berish, xatolarni bartaraf etish va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish vaqtida ma'muriy ish yuritish muddatini to'xtatib turish hamda ma'muriy organ tomonidan qayd etilgan kamchilik ma'muriy hujjatni qabul qilishga mazmunan ta'sir etishi aniq bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-son "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ma'muriy tartib-taomillar ochiq, shaffof va manfaatdor shaxslar uchun tushunarli bo'lishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, NNT ta'sischilari yoki tashabbuskorlari "E-ngo" platformasi orqali Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha jarayon qaysi bosqichida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotni real vaqt rejimida olib turish tizimini joriy etishni taklif qiladi. Bu ma'muriy tartib-taomillarning muddatlari buzilishini oldini olish bilan bir qatorda manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat qabul qilish bo'yicha jarayonning shaffoflashiga olib keladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ta'sischilar tomonidan tashkil qilinishi rejalashtirilayotgan tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash zarurki, garchi qonun hujjatlarida tashkiliy-huquqiy shakllar bir biridan ta'sischilar va a'zolar bilan munosabatlar yo'nalishlari bilan farq qilsada, ularni umumlashtiruvchi yagona jihat bu barcha nodavlat notijorat tashkilotlari notijorat maqsadlarda tashkil qilinadi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida nodavlat notijorat tashkiloti qonunchilikda ko'zda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllardan birini tanlashda e'tibor qaratish zarur bo'lgan ayrim masalalarni alohida-alohida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Birinchisi, jamoat birlashmasi, bu fuqarolar tomonidan o'zlarining nomoddiy ehtiyojini qondirish uchun tashkil qilinadi. Mazkur tashkiliy-huquqiy shaklda a'zolik nazarda tutilgan bo'lib, a'zolar faqat jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Mazkur tashkiliy-huquqiy shaklda Respublikamizda eng ko'p nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil qilingan. 2023-yil 1-yanvar holatiga 8 922 ta NNTdan 7173 ta aynan jamoat birlashmasi tashkiliy huquqiy shaklida tashkil qilingan. Qonun hujjatlarida jamoat birlashmalari imkoniyatlari kengdir.

Shu bilan birga, ushbu tashkiliy-huquqiy shaklda nodavlat notijorat tashkilotini tashkil qilishda ayrim imkoniyatlar cheklanishi holatlarini ham hisobga olish zarur. Xususan, qonun hujjatlariga ko'ra, jamoat birlashmalariga yuridik shaxslarning a'zo bo'lishi nazarda tutilmagan.

Bu esa, jamoat birlashmalar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning mushtarak manfaatlarini ifoda qilishda hamda o'z faoliyatini olib borish jarayonida yuridik shaxslarni

a'zolikka qabul qilish orqali ulardan turli a'zolik va kirish badallari olishda muammolarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchi, muassasa bu yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda tashkil qilinadi. Mazkur tashkiliy-huquqiy shaklda nodavlat notijorat tashkilotlari Respublikamizda tashkil qilingan jami nodavlat notijorat tashkilotlarning 8 %, ya'ni 713 tani tashkil qiladi.

Uchinchi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra, ixtiyoriy mulkiy badal qo'shish asosida tashkil etilgan ijtimoiy foydali maqsadlarda a'zolik nazarda tutilmagan holda tuzilgan NNT hisoblanadi.

To'rtinchi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 40-moddasida tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkinligi qayd qilingan.

Qonun hujjatlarida bir vaqtning o'zida ham yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shuningdek o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida tuzilgan a'zolikka asoslangan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ko'pchilik muammolarga duch kelmoqda.

Xususan, qishloq xo'jaligining muayyan sohasi bilan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar ham shug'ullanishi mumkin. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining ta'sischilari sifatida jismoniy va tadbirkorlik subyektlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarini ham kiritish mumkin. Amalda esa, bu kabi uch hil turdagi subyektlarni birlashtiruvchi yuridik shaxsni tashkil qiluvchi tashabbuskorlar, yuridik shaxsning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli tashkiliy-huquqiy shaklini tanlashda qiynaladi. Natijada, tashabbuskorlar tomonidan, faqat bir turdagi subyektlarni birlashtiruvchi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlashga majbur bo'lishadi.

Bu esa, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida a'zo bo'lish orqali birlashishlarida qiyinchiliklar yuzaga keltirmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokida o'tkazilgan intervyulardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazishda adliya organlari tomonidan muddatlarni buzilishi holatlari ko'p uchraydi.

"Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasiga ko'ra nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni qabul qilib olgan adliya organi ularni bir oylik muddat ichida ko'rib chiqadi hamda nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch kun ichida muassislarga davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma yoki qonun hujjatlarining qaysi qoidalari buzilganligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga olib kelganligi haqida aniq ko'rsatilgan hujjat beradi [5-8].

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslari "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida qayd qilingan.

Qonunning mazkur moddasida nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishni, suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga putur yetkazishni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitishni, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilishni, fuqarolarning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish mumkinligi qayd qilingan.

Biroq, nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlarini ko'rib chiqishda mazkur normalarni turli shaklda tushunish mumkin. Xususan, "fuqarolarning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa" jumlasini ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan keng talqin qilinishi mumkin. Masalan, qoidalarsiz yakkakurash sport turlari ko'pincha sportchilar orasida og'ir jarohat olish yoki o'lim holatlari ko'p uchraydi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ qoidalarsiz sport turlari federatsiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki uni rad etishda ikki xil standartlar yuzaga kelmasligi uchun aniq mezon belgilash maqsadga muvofiq.

Shu bois, nodavlat notijorat tashkilotlarini rad etish asoslarini qayta ko'rib chiqish, ularni vaziyatdan kelib chiqish turlicha talqin qilish holatlarini yuzaga keltirmaslik taklif qilinadi.

Shuningdek, "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslari sifatida ilgari xuddi shu nomdagi nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilganligi sanab o'tilgan.

Bu talab tabiiy ekanligini ta'kidlagan holda, amaliyotdan kelib chiqib hamda o'zaro o'xshash normalarni tahlil qilgan holda nodavlat notijorat tashkilotining nomiga qo'yilgan ushbu talab yetarli emasligini ko'rish mumkin.

Xususan, ro'yxatga oluvchi organ ushbu talabdan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqishda ilgari xuddi shu nomdagi nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilganligi yoki yo'qligi faktiga e'tibor qaratadi.

Vaholanki, nodavlat notijorat tashkilotining nomi nodavlat notijorat tashkilot bo'lmagan yuridik shaxsning nomi bilan bir xil bo'lib qolishi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu holda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nodavlat notijorat tashkiloti nomiga e'tiroz qila olmaydi [9-10]. Oqibatda, deyarli o'xshash nomga ega bo'lgan ikkita yuridik shaxs yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, yuqoridagi norma nodavlat notijorat tashkilotining nomi davlat tashkilotining nomi bilan bir xil bo‘lib qolishini cheklovchi normalar mavjud emas.

Yuridik shaxsning nomiga qo‘yilgan talablar “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunda to‘liq va har tomonlama inobatga olingan holda aks etgan. Shunga ko‘ra, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunda qo‘yilgan talablarni nodavlat notijorat tashkilotiga nisbatan ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning

24-moddasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan nodavlat notijorat tashkilotlari yuridik shaxslarning hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lgan yagona davlat reestriga kiritilishi hamda yuridik shaxslarning yagona davlat reestrda quyidagilar ko‘rsatilishi qayd qilingan: ta‘sis etilgan sana; nomi va joylashgan yeri; rahbar organlari; vakillar sifatida ish olib borishga vakolatli shaxslar; faoliyat sohasi.

Biroq, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-7-ilovalarida nodavlat notijorat tashkilotlarining turiga qarab uch xil reestr berilganligi hamda ushbu reestrlarda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar qonunga ko‘ra reestrda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlardan ko‘proq ma‘lumotlar ko‘rsatilishi nazarda tutilgan.

Shu sababli, yuqoridagi qonun hujjatlarining normalarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining reestrini yagona shaklga keltirish taklif qilinadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda davlat bojini to‘lash bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyatga ega. “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga ilova qilingan Davlat boji stavkalarining miqdorlarining nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun tegishli ravishda BHMning 12,5 baravari, BHMning 3 baravari, BHMning 1 baravari va BHMning 50 foizi miqdorida davlat boji undirilish belgilangan.

Qonun osti hujjat bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 27-bandida asosan NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ariza beruvchilarga qaror qabul qilingandan keyin uch kun mobaynida yozma shaklda xabar qilinadi. Ariza beruvchiga davlat bojini qaytarish masalasi bo‘yicha murojaat qilish yoxud uch oy, siyosiy partiyalar uchun esa — bir oy muddatda rad etish sabablari bartaraf etilgandan keyin, davlat boji to‘lamasdan NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza bilan takroran murojaat qilish huquqi tushuntiriladi.

Ariza ushbu bandning birinchi xatboshida ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan keyin berilgan taqdirda, takroriy murojaat qilishda davlat boji umumiy asoslarda undiriladi, siyosiy partiyalar bundan mustasno.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir.

Mazkur Qonunning 19-moddasiga ko‘ra, Agar ariza ko‘rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo‘lsa-yu, lekin qaytarilmasa, agar davlat boji byudjetga o‘tkazilgan kundan e‘tiboran fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq da’vo muddati tugamagan bo‘lsa, davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin. (ushbu norma Sudlarda davlat bojini undirishning o‘ziga xos xususiyatlari moddasida keltirilgan bo‘lib, qonunning o‘xshashligi bo‘yicha qo‘llash mumkin)

Shunga ko‘ra, NNTni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza rad etilgan holda nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun to‘langan davlat bojini uch oy o‘tgach inobatga olmaslik va qaytarib bermaslik to‘g‘risida Qonun osti hujjat bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 27-bandidagi qoida “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonun va qonunchilikdagi shaxslarning huquqlariga ziddir.

Chunki, davlat boji nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun emas, balki nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun undirilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilot esa davlat ro‘yxatidan o‘tmagan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, quyidagilar taklif qilinadi:

1. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi arizaga

NNTni tuzish tashabbuskorlari yoxud ta’sischilarining tug‘ilgan sanasi, yashash joyi hamda mazkur ma’lumotlar imzolagan shaxsning yashash, ish, o‘qish yoki harbiy xizmat joyida tasdiqlanishi talabini bekor qilish lozim.

Buning o‘rniga NNTni tuzish tashabbuskorlari yoxud ta’sischilarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlar yoki Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami yoxud JSIIIR raqamini taqdim qilish taklif qilinadi.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 18-bandidan Xalqaro va xorijiy NNTlarning vakolatxonalari va filiallarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga vakolatxona va filial faoliyatini moliyalashtirish manbalari to‘g‘risida ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha deklaratsiya taqdim qilinishi bo‘yicha normani chiqarib tashlash taklif qilinadi.

3. Tijorat tashkiloti va notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda ularning nomlari oldin ro‘yxatdan o‘tkazilgan ham tijorat tashkiloti, ham notijorat tashkilotlarining nomlari

bilan bir xil bo'lasliklarini huquqiy asosini yaratish va bundan elektron tizimlar orqali mazkur jarayonni tekshirilishini avtomatlashtirish taklif qilinadi.

4. “Davlat boji to'g'risida”gi qonunda belgilangan nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan davlat boji miqdorlarini ikkiga bo'lib, ya'ni:

nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun davlat boji;

nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji.

5. Ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish va murojaatchiga javob berish muddatlarini aniq belgilash maqsadida quyidagi tahrirdagi normani qabul qilish taklif qilinadi:

“Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlari

Taqdim etilgan hujjatlar quyidagi muddatlarda ko'rib chiqiladi:

nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab bir oy muddatda;

bosh tashkiloti O'zbekiston Respublikasida joylashgan nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi va filialini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n besh kun muddatda;

nodavlat notijorat tashkilotini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n besh kun muddatda”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 20-martdagi 9-05-09-son javob xati.

2. Неъматов Ж.Н. Суд-хуқуқ ислохотлари шароитида маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш масалалари. Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари (Мақолалар тўплами) / Масъул муҳаррир Е.В.Коленко. –Тошкент, “TOP IMAGE MEDIA” 2020. –536 б.

3. Хван Л.Б. Законодательство об административных процедурах и регистрация ННО./ <https://www.gazeta.uz/ru/2020/02/14/administrative-procedures/>

4. Kalinina O.Ye. Tendentsii reorganizatsii i likvidatsii nekommercheskogo partnerstva [Trends in the reorganization and liquidation of non-profit partnerships]. Vestnik arbitrajnoy praktiki – Bulletin of Arbitration Practice, 2013, no. 2. pp. 5–10.

5. Mel'nikov A.A. Grazhdansko-pravovoye regulirovaniye prekrasheniya deyatel'nosti yuridicheskikh lits [Civil law regulation of the termination of activities of legal entities]. PhD thesis. Moscow, 1997.

6. Spektor Ye.I. Razvitiye administrativnogo zakonodatel'stva o gosudarstvennoy registratsii [Development of administrative legislation on state registration]. Jurnal rossiyskogo prava – Journal of Russian Law, 2002, no. 7. pp. 36-47.
7. Guilyev A. NGOs in Azerbaijani Legislation as Institutions. Int'l J. Not-for-Profit L., 2011, p. 93.
8. Hadiwinata B.S. Securitizing poverty: the role of NGOs in the protection of human security in Indonesia. Presentation, Singapore, 2004.
9. Rayhert B. Vereins- und Verbandsrecht [Club and association law]. Legal regulation of the activities of unions and associations. 13th ed. 2016, p. 716, 1140.
10. Sauter E., Schweyer G., Waldner W. Der eingetragene Verein [The registered association]. 19th ed. Munchen, CH Beck Publ., 2010.